XALQ DEPUTATLARI BAXMAL TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 24-iyun VI-73-104-3-44-K/24 Baxmal tumani

Baxmal tumanining 2024-yil mahalliy budjetining daromad va xarajatlar qismiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuni, Budjet kodeksining 27-, 147-moddalari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6-,24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash, iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 21-fevraldagi 03/35-6-4041-sonli tavsiya xati hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 15-maydagi VI-53-111-3-0-K/24-sonli qarorlarini inobatga olib, tuman mahalliy byudjetining daromadlar yoyilmasida rejalashtirilgan “Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalanilgan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar” miqdorini 40 foizgacha oshirish hisobiga moliyalashtirish belgilansin. “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muasasasining saqlash xarajatlarini shakllantirish maqsadida tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromad va xarajat reja ko‘rsatkichlari 1- va 2-ilovalarga mos ravishda oshirilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi“Baxmal tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-66-198-3-44-K/23-sonli qarori bilan tasdiqlangan mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlar va xarajatlar qismiga ilovalarga asosan o‘zgartirish kiritilsin.

2. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Kenjaev)ga mahalliy budjetga tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman Suv yetkazib berish xizmati davlat muasasasi (J.Nizomov)ga ajratilayotgan mablag‘dan maqsadli foydalanish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari N.Sharipov zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi AMANOV BAHTIYOR NARMATOVICH

Xalq deputatlari Baxmal tumani
Kengashining
2024-yil 24-iyundagi
VI-73-104-3-44-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun tuman mahalliy byudjetining tasdiqlangan daromadlar reja ko‘rsatkichlariga “Suv resurslaridan foydalanganlik uchun” solig‘ining oshirilishi munosabati bilan kiritilayotgan o‘zgartirishlar miqdori

ming.so‘mda

№	Tuman nomi	Bo‘lim	Paragraf	Daromad kodi	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
1	Baxmal	3145	204	3145204	311 317,0

Xalq deputatlari Baxmal tumani
Kengashining
2024-yil 24-iyundagi
VI-73-104-3-44-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun tuman mahalliy byudjetining tasdiqlangan xarajatlari reja ko‘rsatkichlariga “Suv etkazib berish xizmati” davlat muassasasining tashkil etilishi munosabati bilan kiritilayotgan o‘zgartirishlar miqdori

ming.so‘mda

№	Hudud nomi	Byudet mablag‘i taqsimlovchi nomi	Bo‘lim	Kichik bo‘lim	Bob	Kiritilgan o‘zgartirish	
						Kamaytirildi	Ko‘paytirildi
1	Baxmal tumani	Tuman “Suv etkazib berish xizmati” davlat muassasasi	7042	480	018	0	346 828,0